

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Son 2. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 2(4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*  
 ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС  
 ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 10-15

*Umarov Sardor Yakubovich*  
 QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,  
 DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR ..... 16-20

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*  
 O'ZBEKİSTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH  
 YO'LLARI ..... 21-29

*Халилдинов Азизбек Абдуқаҳхоровиҷ*  
 КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ  
 БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ..... 30-34

*Мавлянов Мажид, Урдушев Ҳамракуլ*  
 КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ ..... 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*  
 ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
 КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ..... 46-52

*Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi*  
 MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Ақмал Сайдакбаровиҷ*  
 ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ  
 ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАҲСИРИНИ БАҲОЛАШ  
 УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ..... 61-68

*Namazov Gafur Shokulovich*  
 IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH ..... 69-75

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Rasulov Azizkhon Mukhammadqodirovich*  
 YANGI O'ZBEKİSTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI .... 76-81

*Kadirova Ziyoda Rahimjanovna*  
 ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI ..... 82-86

*Turdiyev Bexruz Sobirovich*  
 JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 87-92

*Alimatova Nargis Abdusalilovna*  
 KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI ..... 93-98

*Abdullahayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi*  
 MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKİSTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облоқулович</i> МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАҶНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ .....	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI .....	120-125
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIY IFODALASH TENDENSIYALARI .....	126-130
<i>Nurmanov Furqat Xayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR .....	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI .....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV .....	149-153
<i>Qodirova Madinabonus Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI .....	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ .....	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI .....	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI .....	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE .....	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY .....	191-197
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

**HUQUQI OBYEKTALARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI.....** 207-212

*Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li*

**TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....** 213-220

*Raimova Шоҳсанам Ғайратжоновна*

**РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАННИГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ .....** 221-227

*Mukumov Bobur*

**CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL.....** 228-234

*Нодирахон Абдурахманова*

**ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА.....** 235-239

*Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли*

**ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА.....** 240-246

*Turakulova Nazira*

**MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIY BOSHQARISH .....** 247-260

*Якубов Бекзод Эркинбаевич*

**КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....** 261-265

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich*

**FIZIKA FANINI IJODIY O'ZLASHTIRISH YO'LLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA) .....** 266-271

*Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna*

**O'ZBEKİSTON OLİY O'QUV YURTЛАRIDA İSPAN TİLİ BO'YICHA İJTİMOİY-MADANIY KOMPETENTLİKNI O'QITISH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISH .....** 272-281

*Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich*

**TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI.....** 282-287

*Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li*

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....** 288-291

*Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li*

**IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI.....** 292-296

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*

**THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM .....** 297-304

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*

**TASVIRIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI .....** 305-310

<i>Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNG EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI .....	311-317
<i>Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna</i> SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI.....	318-322

**Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich**

Alfraganus universitet, Umumkasbiy  
fanlar kafedrasi p.f.b.f.d. (PhD), dotsenti  
[bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru](mailto:bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru)

## **TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini boshqa fanlar bilan integratsiyasini joriy etish uchun har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib mavzular uyg'uligini ta'minlash, aloqadorligi aktiv va passiv bo'lgan mavzular aniqlanib ularga oid integrativ yondashuvlar asosida bilim va tushunchalar ishlab chiqilib amaliyoptga qo'llash, integratsiya mexanizmi bir nechta bosqichda amalga oshirish, fanlararo integratsiyalash holatlari, integrativ yondashuvning muhim vazifalari, fan o'qituvchisi darsga kirishdan oldin tayyorgarlik darajasi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Renessans, innovatsiya, integratsiya, grafik ta'lif, kreativlik, kompitentlik, mexanizm, sintez, didaktika, konglomerasiya, komponent, tendensiya.

---

**Hakberdiev Bakhtiyor Rustamovich**  
(PhD), Associate Professor at the General Professional  
department at Alfraganus University

## **INTEGRATION OF FINE ART AND ENGINEERING GRAPHICS WITH OTHER SUBJECTS**

**Abstract.** In this article, in order to implement the integration of the disciplines of fine arts and drawing with other disciplines, in order to ensure consistency of topics depending on the nature of each discipline, identify topics related to active and passive, develop and put into practice knowledge and concepts based on integrative approaches, implement an integration mechanism in several stages, consider cases of interdisciplinary integration the main tasks, a summary of the level of training of a science teacher before entering the lesson.

**Keywords:** Renaissance, innovation, integration, graphic learning, creativity, competence, mechanism, synthesis, didactics, conglomerate, component, trend.

---

**Хакбердиев Баҳтиер Рустамович**  
(PhD), доцент на Общепрофессиональный  
кафедры в Университет Alfraganusa

## **ИНТЕГРАЦИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ С ДРУГИМИ ПРЕДМЕТОМ**

**Аннотация.** В данной статье для внедрения интеграции дисциплин изобразительного искусства и рисования с другими дисциплинами, чтобы обеспечить согласованность тем в зависимости от характера каждой дисциплины, выявить темы, имеющие отношение к активным и пассивным, разработать и применить на практике знания и концепции, основанные на интегративных подходах, реализовать механизм интеграции в несколько этапов, рассмотреть случаи междисциплинарной интеграции основные задачи, краткое изложение уровня подготовки учителя естествознания перед поступлением на урок.

**Ключевые слова:** Ренессанс, инновации, интеграция, графическое обучение, креативность, компетентность, механизм, синтез, дидактика, конгломерат, компонент, тенденция.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N40>

**Kirish.** Yurtboshimiz 29-dekabr 2020 yilda xalqimizga yo'llagan murojaatida: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmi, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyalaramizni asosiy ustunlaridan biri bo'lib xizmat qilishi lozim" degan [1]. Bu gaplarni inobatga olgan holda maktablarimizda bilim berishni yanada takomillashtirish borasida zarur vazifalarni tizimli tarzda ishlab chiqishdan iborat. Maktablarda o'qitish va tarbiyalash integratsiyasi muammolari nazariy va amaliy jihatdan hozirgi zamon nuqtai nazaridan juda muhim bo'lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi.

Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o'zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar muktab ta'limi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030-yilga qadar rivojlanish deklaratsiyasida "ta'lim oluvchilarda san'at vositasida estetik did, dunyoqarash, go'zallikka intilish kabi sifatlarni shakllantirish, madaniy immunitetni tarkib toptirish" qayd etilgan bo'lib, Buyuk Britaniya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreyada bu borada jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moddiy ishlab chiqarishni fan-texnikaning so'nggi yutuqlari asosida tashkil qilish, rasm, chizmachilik, grafika tasviriy san'at sohalarini malakali kadrlar bilan ta'minlov bo'yicha yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. globallashuv jarayonining sur'ati, xalqaro miqqosida innovatsiyalarning tezkor harakati ta'lim tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish kabi asosiy vazifalar bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, liderlik va kreativlik sifatlarini qaror toptirish hamda rivojlantirish zaruratini asoslaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Rivojlangan davlatlarda texnika, ilm-fan jadal takomillashtirilayotgan bir davrda grafik ta'limni amaliyotga keng qo'llagan holda o'qitishni zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilishi kelajak yoshlarimizni bilim olish samaradorligini oshirish muhim sanalmoqda. Rossiya, Xitoy, Kanada, AQSH, Angliya, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Malayziya kabi yana bir qator davlatlarda muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda o'quvchilarni grafik savodxonliklarini amaliy qo'llash, samarali o'qitishni yanada kuchaytirish, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fani bo'yicha kreativlik va kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan taktik va strategik harakatlarni samarasi namoyon bo'lmoqda [2].

Yurtimizda, xorijiy davlatlarda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stliklarida tasviriy san'at va chizmachilik fanlarida ijodiy va grafika savodxonlikni oshirish, fanlarni mazmunini integratsiyalash, talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarini samarali rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan: yurtimizda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish sohasida R.X.Jo'rayev, B.S.Abdullayeva, U.K.Tolipov, P.Musayev, R.F.Yuzlikayev, E.Ro'ziyev, A.Hamroqulov, D.Nozilov, Sh.Abduraxmonov, S.Saydaliyev, Sh.S.Sharipov, Sh.N.Muslimov, A.B.Tadjibayev, Sh.D.Dilshodbekov, N.I.Xurboyev, J.A.Qosimov,

S.X.Mardovlar yana bir qator olimlarimiz zamonaviy ta'lim metodlari, o'quv jarayonida grafik masala yechishda tasviriy san'at va chizmachilik fanlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlardan samarali foydalanishga mos ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida A.P.Belyayeva, V.V.Kozlov, I.V.Glazkova, A.V.Ivanov, M.Pak, V.D.Krasilnikov, G.B.Minervin, A.A.Bartashevich, V.A.Gerver, V.A.Belikov, A.P.Bobrova, Ye.V.Ilyasheva, P.Ye.Shpara, G.M.Saltikova, S.I. Gudilina, S.I. Dembinskiy, S.L.Rubinpgtein, A.N. Leontev, P.Ya.Galperin, N.F.Talizina, Ye.N.Kabanova-Meller, Z.I. Kalmikova kabilar tasviriy san'at va chizmachilik fanlaridan ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan turli yondashuvlar, ilmiy-metodik adabiyotlar yaratish va ularni o'quv jarayonidagi o'rnini tadqiq etishgan.

Chet el mamlakatlarida bu borada D.Karaginnis, S.S.Condoor, D.H.Baxter, R.Jerz, A.Sadegh, M.Guerra, R.W.Bolton, S.Smith, C.Chassapis, K.Sheppard, C.H.Ethan, N.W.Hartman, F.Rable, M.Monten', T.Mor, T. Kampanella, Dj.Lokka, A.Masloy, K.Rojerrs kabi olimlar tasviriy san'at va chizmachilik fanlarida chizmalarini chizishda samarali foydalanish bilan bir qatorda integrativ faniga oid yutuqlarni shu dasturlar mazmuniga kiritish va uning samaradorligi ustida ilmiy izlanishlar qilishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu harakatlar mакtab tizimida fanlarni integratsiyalashga yo'naltirilgan ta'limiy texnologiyalarni didaktik jarayonlaridan foydalanib bu fanlarni muammolari hisoblanadi. Axborot texnologiyalari hayotimizni bir qismiga aylanib bormoqda. Maktabda chizmachilik fani o'quvchilarni psixologik jihatdan yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning xususiyatlari mavjud. 8-9-sinflarda tahsil olayotgan o'smirlar bu fanlar manbalarini bilishga qat'iy va ongli ravishda harakat qiladilar. Shuni hisobga olgan holda fan o'qituvchisi har bir darsni mavzu mazmuniga mos vositalardan qo'llagan holda, qaysidir miqdorda kasbiy yo'naltirishga qaratilgan holda, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirish holatiga, mustaqil malakalarini mustahkamlashga qaratilish holatlari, fanlararo integratsiyalash holatlari, mavzu yoritilgandagi ilmiylik holatlari, mavzuni hayot bilan bog'langanligi, tarbiyaviy maqsadni ta'lim bilan mustahkamlanganlik holatlari tahlil qilinib, dars maqsadlariga to'liq javob beradigan qilib tayyorlashi lozim bo'ladi. chizmachilik kursini maktabda o'qitishning maqsad va vazifalari; o'qitishning tashkiliy shak va metodlarini ishlab chiqish; o'qitishning metodik vositalari (o'quv — ko'rgazmali qurollar va jihozlar)ni tanlash, ishlab chiqish va tadqiqot qilish; chizmachilikning boshqa fanlar bilan aloqalarini (matematika, geometriya, dizayn.) hamda kurs mazmunini ochib beruvchi tushunchalarni aniqlash va hokazolar kiradi [3].

Jahonning har bir muhandislik grafikasi fanlari bo'yicha olib borilayotgan aloqadorlik, yaxlitlash, mujassamlashtirish, birlashtirish, to'ldirish, integratsiyalash singari bu yondashuvlarni faol ishtirok etishida eng yuqori, sifatli va samarali ta'limni amalga oshirish, o'quvchilarni grafik bilimlarini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar, umumiyl o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida ijodiy va grafik savodxonliklarini, kreativlik va kompetentlik qobiliyatlarini takomillashtirishga, o'quv materiallarini zamonaviyiligi va ustuvorligini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan izlanishlar olib borilmoqda.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash, metodikani puxta shakllantirish quyidagi natijalarga erishishni kafolatlaydi: talabalarda grafika fanlari asoslarini puxta o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani hosil qilish; ularning o'quv-bilish faolligini oshirish; talabalarning

mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash ; talabalar tomonidan grafika fanlari asoslarini o'qitish sifatini yaxshilash; grafika fanlarini o'qitishning samaradorligini oshirish [4].

**Tahlil va natijalar.** Integratsion jarayonlar borishida integratsiya mexanizmlari muhim vazifani bajaradi. Integratsiya mexanizmlari (grek. mechane – mashina, uskuna) – ko'plab komponentlardan yaxlitlikni shakllantirishni ta'minlovchi mantiqan bog'langan bo'g'inlar tizimidir.

Integrativ bosqichda integratsiya mexanizmi bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

- tuzilma sifatida tartibga solingan, lekin o'zaro bog'lanmagan o'quv materiallaridan didaktik jihatdan ahamiyatga ega mazmun komponentlarini ajratib olish;
- funksional bog'liq, didaktik jihatdan ahamiyatga ega komponentlarni umumlashtirish va uni komplekslash;
- komponentlarni fanlararo bog'lanishlar, konglomeratsiya va sintez shaklida birlashtirish (integrasiya);
- integratsiyalangan mazmun komponentlarini tizimlashtirish (tartibga solish)[5].

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi.

Grafika integratsiyasi o'quv dasturining muhandislik bo'limi quyidagi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi:•o'quvchilarga muammolarni samarali yechish uchun zarur ko'nikmalarni berish;•talabalarni ba'zi asosiy muhandislik vositalari bilan tanishtirish; • talabalarning mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirishga yordam berish;•talabalarga fazoviy tahlil qilish malakalarini oshirish imkoniyatini berish;•talabalarga tegishli rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berish; va • talabalarga texnik taqdimotlarni o'qish va yoki sharhlashni o'rgatish [6].

Integrativ yondashuvning muhim vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- metodologik (uning mazmuni, o'ziga xosligi va almashinmasligi), shuningdek, o'ziga xos metodlar (mehnat, bilish va muloqot unumдорлиги) haqidagi konseptual holatlarni asoslash;
- integrirlovchi (yaxlitlovchi, tizim hosil qiluvchi, sintezlovchi, loyihali- prognostik, konstruktiv-modellashtiruvchi, nazorat-korrektsiyalovchi, natijador- baholovchi);
- shakllantiruvchi (ta'limiylar, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, shaxsning tizimli bilimlari, umumlashgan ko'nikmalari, qadriyat munosabatlari, fikrlashning integrativ uslubini va boshqalarni shakllantiruvchi) [7].

Tasviriy san'at va chizmachilik darslarini integratsiyalab o'qitishda o'qituvchining bilimlarini o'quvchilarga berishda fanlar mavzulari yangilanishi uchun o'z ustida ishlab yangi mavzu materiallarini o'rgatish, o'quvchilarga yanada yangi bilimlarni mustahkamlash, fanlar umumlashtirilganlarini takror bo'lib qolmasligi, dars mavzularini kombinatsiyalashgan yoki aralash dars mashg'ulotlarini o'tish. Bugungi kunda yurtimiz maktablarida ta'lim sifatini

oshirish hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika, dizayn, chet tili fanlariga talab yuqori bo'lganligi sababli ularni zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida integrativ yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Buning natijasi o'laroq tasviriy san'at va chizmachilik fanlari mavzulari texnologiya, atrofimizdag'i olam, matematika, biologiya, informatika, matematika, fizika, ximiya, algebra, geometriya, zoologiya fanlarini mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan aloqadorlik yondashuvlari asosida o'quvchilarga beriladigan ijodiy va grafik savodxonligini yanada oshirish juda yaxshi samara beradi.

Bunda tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini yuqorida qayd etilgan fanlar bilan integratsiyasini joriy etish uchun har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib mavzular uyg'unligini ta'minlash lozim, aloqadorligi aktiv va passiv bo'lgan mavzular aniqlanib ularga oid integrativ yondashuvlar asosida bilim va tushunchalar ishlab chiqilib amaliyatga qo'llash lozim va bu fanlar va ularning mavzularini integratsiyalashuvini ilmiy hamda pedagogik tendensiyalarini amaliyatga joriy etilganda bilim berish darajasi yengillashadi, ortiqcha vaqt sarflanmaslikka erishiladi. Shuni e'tirof etish joizki, ijodiy va grafik savodxonlikni oshirishda tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini boshqa fanlar bilan integratsiyasi sifatli ta'limni yanada takomillashtirishda muhim o'rinn tutadi. Tasviriy san'at va chizmachilik fanlarida perspektiva eng muhim roldir. Chunki har bir chizilayotgan rasm perspektiva ishtiropkisiz bo'lmaydi va chizmachilikda ham perspektiva o'qitiladi va yuqorida berilayotgan barcha fanlarda perspektiva faol ishtirop etadi. Topografik rasmlar asosan geografiya fanida ishtiropki mavjud. Sxemalar har bir fonda mavjud. Shunga o'xshagan mavzular o'xshashliklari ko'pligi va ularni integratsiya orqali o'qitish o'quvchilar fazoviy tasavvurlarini kengaytiradi.

**Xulosa va takliflar.** Maqola xulosasida shuni aytib o'tish lozimki yuqorida ko'rsatilgan fanlar, chizmachilik va tasviriy san'at fanlari bilan aloqadorlikda o'qitishda zamonaviy texnologiyalar bilan o'qitish samara beradi. Umumta'lim maktabalarida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi darslari boshqa fanlar bilan integratsiyalab o'qitilganda odatiy fan mavzularidan birmuncha farq qiladi. Mavzular bo'yicha aloqadorlikda o'rganilayotgan manbalarni asosiy qismi bo'yicha o'quvchilar ijodiy va grafik masalalarni bajaradilar va ularni tekshirish jarayonida har bir o'quvchi bilan individual ishlaydilar. Integratsiyalashgan darslarning yutuqlaridan biri o'quvchilar imkoniyat va qobiliyatlarini qay holatda ekanligini bilishi juda yaxshi samara beradi.

Fan o'qituvchisi darsga kirishdan oldin tayyorgarlik darajasi, bilimdonligi, ilmga chanqoqligi, kasbiy mahorati yuqori bo'lsa sinfdagi o'quvchilarning dars davomida diqqatini jamlashi har bir ijodiy va grafik ishlarni integrativ yondashuvlar orqali sifatli va samarali bajarishlari qisqa vaqt ichida bajarishadi. Bu orqali dars o'tish jarayonida integrative yondashuvlar ishtiropkida turli didaktik o'yinli texnologiyalar ishtiropkida o'quvchilarni fanlarga qiziqtirish, bilim salohiyatlarini oshirishga erishishimiz kerak.

#### Адабиётлар/Литература/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 2020.29.12
2. Haqberdiyev, B. R. (2022). Integration of engineering graphics and design science in a comparative description of methodological approaches. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(7), 67-70.

3. Haqberdiyev, B. R., Otaxonova, S. F., & Qodirova, D. I. (2021). Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 1189-1192.
4. Фазулин Э.М., Рябов В.А., Яковук О.А. Использование программ 3д-моделирования при обучении инженерной графике // <https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-programm-3d-modelirovaniya-pri-obuchenii-inzhenernoy-grafike> 84.
5. Haqberdiyev B.R. Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini o'zaro integratsiyalash asosida o'qitish metodlarini takomillashtirish. 2023 y. //Avtoreferat-dissertatsiya// 21-b
6. Bolton, R.W. & Morgan, J. Engineering graphics in an integrated environment. 1. 462-466 vol.1. 24.
7. Haqberdiyev B.R. Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini o'zaro integratsiyalash asosida o'qitish metodlarini takomillashtirish. 2023 y. //Avtoreferat-dissertatsiya// 17-b

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 2 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).